

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI



5120100 – FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH (INGLIZ TILI)  
YO'NALISHI BITIRUVCHI KURS TALABALARI UCHUN FANLARARO  
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI

## DASTURI

- Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha  
Ta'lif sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar  
Ta'lif yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida NIZOM” (hozirga qadar mazkur Nizomga bir necha bor o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, 2018-yil 7-noyabrdagi 26-sonli buyrug‘iga binoan so‘nggi o‘zgarish bo‘lgan)ga asosan ishlab chiqildi.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra Ingliz tili kafedrasining 27.12.2023-yildagi 5-yig‘ilishida muhokama qilingan hamda Chet tillari fakultetining 29.12.2023-yildagi 5-kengashida ma’qullangan. Universitet kengashining 30.01.2024-yildagi 6-sonli yig‘ilishida tasdiqlangan.

Tuzuvchilar: D.Mirzayeva - Ingliz tili kafedrasи mudiri

N.Abbasova - Ingliz tili kafedrasи katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar: G‘.Xoshimov – ADChTI professori, filologiya fanlari doktori

S.Solijonov – ADChTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

## **KIRISH**

Mazkur dastur 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi bitiruvchilarining to‘rt yil mobaynida ixtisoslik fanlarini o‘qib o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan Yakuniy Davlat Attestatsiyasi sinovlari bo‘yicha ishlab chiqilgan.

2022/2023 o‘quv yilida bitiruvchilarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 25-avgustda 744-sod bilan tasdiqlangan o‘quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o‘tkaziladi.

## **YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI o‘tkaziladigan fanlar tarkibi:**

1. Asosiy o‘rganilayotgan chet tili (ixtisoslik fanlari)
2. O‘rganilayotgan til nazariy aspektlari (ixtisoslik fanlari)
3. Mamlakatshunoslik (ixtisoslik fanlari)
4. Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti (ixtisoslik fanlari)
5. Tillar o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari (ixtisoslik fanlari)

### **“ASOSIY O‘RGANILAYOTGAN CHET TILI” fanining mazmuni**

Asosiy o‘rganilayotgan chet tili fani talabalarga o‘rganilayotgan chet tilida o‘qish va yozishmahoratini o‘rgatishni nazarda tutadi. Mazkur fan doirasida talabalar YevropaKengashining “Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish vabaholash” to‘g‘risidagi umume’tirof etilgan xalqaro meyorlari (CEFR) ga ko‘ra B1 va C1darajaga mos keladigan mavzularga oid turli matn turlarini o‘qib, mazmuninitushunishlari va CEFR B2-C1 darajasi talabiga javob beruvchi turli matnlarniyozishnio‘rganadilar. Shuningdek, 4 kurs talabalariga bitiruv malakaviy ishlarini yozish, ilmiyishni boshlash bosqichlari, yozish uslublarini to‘g‘ri qo‘llash va ilmiy matnni tahrirlasho‘rgatiladi. Ushbu fano‘z tarkibida uch modulni – “O‘qish”, “Yozma nutq amaliyoti” va “Ilmiy yozuv” modullarini mujassamlashtirgan.

Asosiy o‘rganilayotgan chet tili fani mazkur ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasidagi boshqa umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, modullar ketma-ketligi va mazmuniga mos ravishda 1-8 semestrlar davomida o‘qitiladi. Ushbu fan lingistik kurs hisoblanadi va to‘rt yil davomida uch qismga: o‘qish moduli, yozma nutq amaliyoti va ilmiy yozuv moduliga ajratilgan holda o‘qitiladi. O‘quv rejaning xorijiy tilni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish, til aspektlari amaliyoti, metodika, mamlakatshunoslikka oid kurslari va o‘rganilayotgan chet tilining nazariy kurslari - umumiy tilshunoslik, stilistika va matn tahlili, nazariy fonetika, qiyosiy tipologiya, nazariy grammatika fanlaridan zaruriy bilimlarni egallahda ushbu fan modullari bo‘yicha o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalar muhim ahamiyat kasb etadi.

### **II. O‘quv fanining maqsadi va vazifasi**

Mazkur fanning maqsadi talabalarga kasbiy yo‘nalish doirasida tilning og‘zaki va yozma shakllarini o‘rgatish, ularning ijtimoiy-madaniy muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan o‘rganilayotgan chet tilining funksional shakllari va uslublarini, til to‘g‘risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo‘llay olishlarini ta’minlashdir. Fanning asosiy vazifasimume’tirof etilgan xalqaro meyorlarga ko‘ra talabalarning o‘rganilayotgan chet tilini C1 darajada egallahslari uchun zaruriy bilimlarni integrallashgan tarzda o‘rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishdir.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yidagi talablar qo‘yiladi.  
Talaba:

- o‘rganilayotgan asosiy chet tilini Umumevropa standartlariga ko‘ra C1 darajada o‘zlashtirishi;

- o‘rganilayotgan chet tilining fonetik va grammatic qonuniyatlarini bilish va qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallashlari;
- o‘rganilayotgan chet tilida og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini egallashi;
- tushunish va muhokama qilish uchun bosqichma-bosqich turli til materiallari bilan ishslash usullari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;
- o‘z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs modullari va ularning mavzularidan kelib chiqqan holda mantiqiy bayon etishi;
- chet tilidagi og‘zaki va yozma shakldagi ma’lumotlarni tushunish maqsadida turli strategiyalarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
  - chet tilining fonetik va grammatic strukturalariga oid bazaviy va kommunikativ jarayonda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklari va qonuniyatlarini bilishi va ularni nutq jarayonida qo‘llay olishi;
  - chet tilida chop etilgan turli matbuot materiallari va axborot beruvchi boshqa vositalardan olingan autentik til materiallarini tushuna olish va ularni tahlil qilish;
  - o‘rganilayotgan chet tilida o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish;
  - bitiruv malakaviy ishini yozish, ilmiy ishni olib borish bosqichlari, yozish uslublarini to‘g‘ri qo‘llash va ilmiy matnni tahrirlash borasida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

### **III. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlar)**

#### **1-Modul. Og‘zaki nutq amaliyoti**

Og‘zaki nutq amaliyotimoduli bo‘yicha talaba quyidagi bilimva ko‘nikmalarni egallashi shart:

- tanish yoki o‘zini qiziqtirgan mavzularda soddarroq gaplar vositasida yuzma-yuz muloqotga erkin kirisha olishi, muloqotni samarali davom ettrishi va tugallashi;
- tinglab tushunishni osonlashtirish uchun talaba turli strategiyalarni qo‘llay olishi, jumladan, matnning asosiy g‘oyasini tushunish, kontekstdagi tayanch so‘zlarni anglay olishi;
- hissiyotlari va munosabatini tasvirlagan holda ko‘rgan-kechirganlarini batafsil bayon qila olishi;
- o‘rganilayotgan chet tilida to‘g‘ri va aniq talaffuzda gapira olishi;
- tanish mavzulardagi, jumladan kasbga oid mavzulardagi aniq va ravon tuzilgan ma’ruza yoki nutqni tushuna olishi va unga doir savollarga javob bera olishi;
- turli janrdagi (tele yangiliklar, hikoyalar, telereklamalar, e’lonlar va shu kabi) matnlarni tushunish va muhokama qilish uchun tinglashi;
- so‘zlashuvchining kayfiyati, ohangi va munosabatini anglay olishi;
- norasmiy va rasmiy ko‘rinishdagi muhokamalarda o‘z nuqtai nazarini va fikrini bemalol bayon eta olishi va boshqalarning fikrini so‘rashi;
- o‘qish va kasbga oid mavzulardagi aniq va batafsil og‘zaki tavsiflarni tushuna olishi va matn tuza olishi;
- turli variantlar, sabab, natija, turli situatsiyalarning yutuq va kamchiliklarini e’tirof etgan holda o‘z nuqtai nazarini ifoda etishi;
  - turli ijtimoiy kontekstlarda tegishli til vositalardan o‘rinli foydalana olishi;
  - adabiy (standart) og‘zaki tilni shovqin yoki nutq yaxshi eshitilishiga to‘sinqinlik qilayotgan boshqa tashqi omillar sharoitida ham to‘liq tushuna olishi;
  - adabiy (sandart) tilda olib boriladigan radio va TV dasturlarni (hujjatli filmlar, jonli intervylular, tok-shou, spektakl va aksariyat badiiy filmlar) tushuna olishi va mazmunini qisqacha og‘zaki bayon eta olishi.

## **2-Modul. O‘qish va yozish amaliyoti**

Og‘zaki nutq amaliyotmodului bo‘yicha talaba quyidagi bilim va ko‘nikmalarni egallashi shart:

- o‘rganilayotgan asosiy chet tilini Umum Yevropa standartlariga ko‘ra C1 darajada o‘zlashtirishi;
- o‘rganilayotgan chet tilida o‘qish va yozish ko‘nikmalarini egallashi;
- tushunish va muhokama qilish uchun bosqichma-bosqich turli matn turlari bilan ishlash usullari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;
- o‘z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs mavzularidan kelib chiqqan holda yozma ravishda aniq va mantiqiy bayon etishi;
- matnni tushunish maqsadida turli strategiyalarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- bitiruv malakaviy ishini yozish, ilmiy ishni olib borish bosqichlari, yozish uslublarini to‘g‘ri qo‘llash va ilmiy matnnitahrirlash borasida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

O‘qish va yozish moduli mazmuni o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

O‘qishni o‘rganishdagi matn va manba turlari:

- taomnomalar, retseptlar;
  - jadvallar;
  - kichik hikoyalar;
  - goroskoplar;
  - shaxsiy xatlar;
  - kundaliklar;
  - informatsion bukletlar, broshyuralar (filmlar, ko‘rgazma va hokazolar haqida), sayyoqlik yo‘riqnomalari;
  - yangiliklar bayoni;
  - tanish mavzularga oid qisqa gazeta maqolalari;
  - she’rlar;
  - internet matnlari (bloglar);
  - e’lonlar (grantlar, sayihat manzillari haqida);
  - qo‘llanmalar/instruksiyalar (texnik vositalar, asboblar uchun );
  - qomusiy maqolalar;
  - gazeta va jurnallardagi maqolalar (yangiliklar, ma’ruzalar, katta hajmdagi maqolalar, xalqaro ilmiy jurnallarda o‘rganilayotgan chet tilida chop etilgan maqolalar);
  - tahlil bayon etilgan qisqa ma’lumotlar;
  - asarlardan keltirilgan parchalar;
  - internet matnlari (bloglar, veb-saytlar);
  - ensiklopedik maqolalar;
- Yozishni o‘rganishda quyidagi tur matnlarni yaratish bo‘yicha ko‘nikmalar shakllantiriladi:
- tabriknomalar va taklifnomalar;
  - shaxsiy ma’lumotnomalar, anketa savollari;
  - sodda xatlar, eslatmalar, qaydlar;
  - voqe-a-hodisa, odamlar va predmetlar tasviriga bag‘ishlangan xatlar, matnlar;
  - rasmiy va norasmiy xatlar;
  - e-mail, internet forumlariga xatlar;
  - norasmiy elektron xatlar
  - turli maqsadlardagi xatlar;
  - yozma tanqidiy, rad javobi (masalan, biznesdagi hamkoriga)
  - rezyume va tarjimai hol;
  - kichik hikoyalar;
  - taom retseptlari;

- shaxsiy kundalik
- bayonnomalar (masalan, ijtimoiy tadqiqotlar, jamoa muammolari, ta'lim jarayoniga oid muammolar va b.)
- kitob yoki filmlarning qisqa taqrizi;
- hisobotlar (uchrashuv hisobotlari, tashrif hisobotlari);
- tadqiqot hisobotlari;
- yaxshi va yomon tomonlarini baholash va tahliliy hisobot;
- fikr bildiruvchi insho;
- “qarshi yoki qarshi emaslik fikrini bayon etuvchi” insho;

### **3-Modul. Amaliy fonetika**

Chet tili amaliy fonetikasi modulini o‘zlashtirish jarayonidagi amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- davlat ta’lim standartlari va namunaviy o‘quv dasturi doirasida nazarda tutilgan talab va til materiallarini bilishi;
- o‘zlashtirilgan bilimlar asosida tilning orfoepik talaffuz ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- dastur va rejada nazarda tutilgan fonetik qoidalarni sharhlab berish va amaliyotda ularni qo‘llay olish malakalariga ega bo‘lishi kerak;

Amaliy fonetika moduli o‘z ichiga quyidagi mavzu va til materiallarini qamrab oladi:

- nutq tovushlari, nutq oqimi, intonatsiya, talaffuz tizimlari, uslublari;
- nutq tovushlarning uch tomonlama xarakteri: akustik, artikulyatsion va lingvistik.
- nutq tovushlarining akustik xususiyatlari: balandlik, kuchlilik, membr, cho‘ziqlik.
- tovushlarning shovqin (undosh) va musiqaviy ton (unli)larga bo‘linishi.
- nutq tovushlarining artikulyatsiyasi: talaffuz (nutq) apparati.
- tovush hosil bo‘lish fazalarini: nafas chiqarish, ovozning hosil bo‘lishi, nutq organlarining muayyan holatga qo‘yilishi (artikulyatsiya).
- artikulyatsiya fazalari: kirishish (nutq organlarining muayyan holatga qo‘yish), saqlash (qo‘yilgan holatni tutib turish), qaytish (tutib turilgan holatning buzilishi, ya’ni boshqa holatga o‘tishi).
- aktiv va passiv nutq organlari.
- tilning artikulyatsiya bazasi.
- fonema tushunchasi. fonema va tovushning o‘zaro munosabati.
- fonetik yozuv (transkripsiya), tilning talaffuz normasi (orfoepiya).
- grafika va orfografiya.
- O‘rganilayotgan chet tilining artikulyatsiya hususiyatlari.
- unlilar artikulyatsiyasining hususiyatlari va tasnifi.
- tarixiy va ritmik cho‘ziqliklar.
- burun unlilarining nazalizatsiyalashuv xarakteri.
- undoshlar va ularning xususiyatlari.
- yarim undoshlari (yoki yarim unlilar).

### **4-Modul. Amaliy grammatika moduli**

Amaliy grammatika moduli mazmuni quyida til qonuniyatları va grammatic qoidalarini o‘z ichiga oladi:

- o‘rganilayotgan chet tilining grammatic tuzilishi.
- morfologiya va sintaksisning o‘zaro aloqalari.
- grammatic kategoriyalar.
- so‘zlarini tasnif qilish, so‘z turkumlari.
- fe’llarning tuslanish guruhlari.
- aniq va majhul nisbatlar.
- mayl va zamon.
- sodda va qo‘shma zamonlar.

- zamonlarning moslashuvi.
- fe'llarning birlik va ko'plik shakllarining ifodalanishi va ularning shaxslari. fe'lning shaxssiz shakllari: infinitiv, hozirgi zamon sifatdoshi, o'tgan zamon sifatdoshi, ravishdosh.
- shaxssiz qurilma.
- fe'lning sintaktik vazifasi.
- ot so'z turkumi va ularning turlari.
- otning grammatik kategoriyalari.
- ko'plik formaning yasalishi.
- otlarning ko'plik shaklini yasashda ulardagi orfografik va fonetik o'zgarishlar.
- artikl, olmosh va determinativlarning roli.
- artikl va uning turlari.
- sifat so'z turkumi va uning turlari.
- sifatning grammatik kategoriyalari.
- sifatlarda rod va ko'plik shakllarining yasalishi.
- sifatlarning qiyosiy darajasi.
- sifatning gapdag'i o'rni.
- sifatlarning sintaktik vazifalari.
- olmosh so'z turkumi va uning turlari.
- olmoshlarning fe'l oldida qo'llanish tartibi va ularning turlari.
- olmoshning gapdag'i vazifasi.
- ravishning ma'nosiga va shakliga ko'ra tavsifi.
- ravishning sintaktik vazifasi.
- ko'makchilarining turlari va vazifasi.

## **5-Modul. Madaniyatlararo kommunikatsiya moduli**

Mazkur modulning maqsadi talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishdan va kelgusidagi kasbiy hamda hayotiy faoliyatida ushbu ko'nikmalardan to'g'ri foydalana olishidan iborat.

Modulni o'zlashtirgach talaba:

- madaniyatlararo muloqot, xalkaro madaniy kompetentlik, madaniyatlar o'rtasidagi tafovutning til o'rganish va o'qitishdagi ahamiyati;
- madaniyatlararo muloqotning ekstralivingistik jihatlari (dunyoqarash, marosimlar, urfatlar, inson a'zolari tili, tabular, stereotiplar, ko'pmillatli madaniyatlarda jamiyatning o'rni, imij, ramzlar);
- madaniyatlararo muloqotda madaniyatga xos xususiyatlarni (salomlashuv, mulozamatni aks ettirish yo'llari, murojaat qilish yo'llari, idiomalar va hokazo) o'rinli ishlatish;
- o'zga til madaniyatiga xos jihatlarni o'qitish uchun o'quv materiallari yaratish, mavjudlarini tahlil qilish, moslashtirish malakalarini egallaydi.

Modul mazmuni quyidagilardan iborat:

- madaniyatlararo muloqot, xalqaro madaniy kompetentlik atamalari;
- madaniyatlararo muloqotda ekstralivingistik masalalar (dunyoqarash, marosimlar, urfatlar, inson a'zolari tili, tabular, stereotiplar, turli madaniyatlarda jamiyatning o'rni;
- chet tili darslarida til va madaniyat (salomlashuvlar, mulozamatni aks ettirish, murojaat qilish yullari, idiomalar va h.k.);
- madaniyatlararo ziddiyat, to'qnashuvlarga sabab bo'luvchi omillar, madaniy shok, madaniy o'ziga xoslik, xalqaro madaniyatda o'zligini asrash;
- madaniyatlararo muloqotga o'qitish uchun o'quv materiallari (adabiyot, gazetalar, TV, internet, rasmlar, realiyalar, filmlar, ramzlar va h.k.)dan foydalanish;
- o'zga madaniyatga tegishli mavzularni o'qitish va materiallarni yaratishda o'tahushyor bo'lish, materiallarni tahlil qilish (darsliklar, dars ishlanmalari, konspekt, topshiriqlar, vazifalar)
- o'zga madaniyat mavzulari uchun o'quv materiallarni yaratish (3 ta maqsad: til, pedagogika, madaniyat)

- globallashuv va hozirgi kunda o‘rganilayotgan chet tilining muloqotda xalqaro til sifatida ishlatalishi ;
- o‘rganilayotgan chet tilining xalqaro jamiyatda e’tirof etilgan til sifatida qo‘llanilish darajasi (ijtimoiy va siyosiy omillar - bunda o‘rganilayotgan chet tilining uzoq tarixiga emas, balki hozirgi maqomiga ko‘proq e’tibor qaratiladi);
- tildagi o‘zgarishlar va unga ta’sir etuvchi omillar (masalan, internet, biznes, diplomatiya va h.k.);

## **6-Modul. Matbuot tili moduli**

Matbuot darslarida ommaviy axborot vositalaridan keng miqyosda foydalanish nazarda tutiladi. Bularga asosan, gazeta va jurnallar, qisman esa chet tilida yaratilgan va chop etilgan ommaviy axborot vositalari hamda internet materiallaridan foydalanish imkoniyatlari kiradi. Matbuot darslarida talaba tilidagi turli xarakterdagi gazeta va jurnal materiallarini izohlash va sharhlashni bilishi kerak. Muayyan mavzuga oid turli xarakterga ega bo‘lgan turlicha maqolalarini, so‘nggi davrda dunyoda bo‘lib o‘tgan voqeя va xodisalarni, nazariy-siyosiy maqolalarini bilishi va sharhlay olishi lozim. Ona tilida o‘qigan turli rusumdagи har qanday maqolani chet tilida erkin bayon eta olishi kerak.

Ushbu modulni o‘rganish natijasida talaba:

- matbuot matnlarini asl matndagi keltirilgan ma’lumotlar mazmunini to‘liq va tushunarli yetkazib berishni;
- ommaviy axborot vositalarida keltirilgan turli ko‘rinishdagi ma’lumotlarni tushunish va tarjima qila olishni;
- turli kontekstda qo‘llangan til birliklari, jamiyatning turli sohalariga bag‘ishlangan maqolalarini bir-biridan farqlay olish va matn ichida uchrashi mumkin bo‘lgan ma’no ottenkalarini ajrata bilishni;
- ommaviy axborot vositalarida boshqa madaniyatlarga xos bo‘lgan turli mazmundagi ma’lumotlarga duch kelganda zarur madaniyatlararo bilimlarga ega bo‘lgan holda sharoitga moslasha olishni o‘rganadi;
- matbuot matnlarini o‘rganish va tahlil qilishda ularning mazmunini qiynalmasdan qayta bayon qilish;
- matbuotda keltiriladigan ma’lumotlar va matnlar turlarini farqlash va ulargi mos ravishda matn yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Matbuot tili modulining asosiy mazmuni quyidagicha:

- ommaviy axborot vositalari va ularning o‘ziga xosligi;
- OAVda ishlataladigan til uslublari;
- OAV tilining o‘quvchiga ta’sir qila olish, uning e’tiborini tortish xususiyati;
- OAV turlari tasnifi;
- OAVning jamiyatda tutgan o‘rni;
- ma’lumotlarning matbuot materialiga aylanishi;
- reklama va e’lonlar OAVning o‘ziga xos janrlari sifatida;
- OAVda etika masalasi;
- Elektron OAV va ularning bugungi kundagi ahamiyati;
- Axborot vositalarida madaniyatlararo kommunikatsiya masalasi;
- yozma matbuot;
- yozma matbuotning diskursiv va lingvistik o‘ziga xosliklari;
- matbuotda standart va ekspressiv til birliklarining aks etishi;
- turli janrdagi matbuot matnlarining tuzilish shakllari;
- maqolalardagi sarlavhalarning tahlili;
- asosiy o‘rganilayotgan chet tilida chop etiladigan mashhur gazeta va jurnallar;
- maqola matnidagi ma’lumot turlariga qarab matn ichida uchraydigan leksik va stilistik uslublar va qisqartma so‘zlar;

- mahalliy va xalqaro mavzularni yorituvchi matbuot tilining bir-biridan (leksik, grammatik va sintaktik jihatdan) farqlari;
- og‘zaki axborot va ularning manbalari;
- yozma bo‘limgan OAV turlari, ularning auditoriyaga ta’sir qilish uslublari va yozma matbuotdan farqli jihatlari;
- televideniye muhim OAV turi sifatida;
- televideniyeda beriluvchi turli janrlarga oid ma’lumotlar (axborot beruvchi, axborot-tahliliy ko‘rsatuvlar, tok-shou, hujjatli filmlar, reklama dasturlari)ning o‘ziga xosliklari;
- OAVda siyosiy arboblarning chiqishlari va ularning nutqlarining tahlili;
- matbuot materiallarini taxlil qilish usullari;
- ma’lumotni uzatishda ma’lumotni qisqartirish hodisasi;
- matnlarda ishlataladigan kommunikativ uslublar: takrorlar, sinonimiya, antonimik konstruksiylar va hak.;
- matnlarda muallif fikrining aks etishi;
- har bir muallifning o‘ziga xos ifoda uslubi yaratuvchisi sifatida;
- OAV tilining omma fikrini shakllantirishdagi roli;
- OAV materiallarida metaforalarning qo‘llanishi;
- verbal va audiovizual materiallarning o‘zaro bog‘liqligi;

### **Asosiy o‘rganilayotgan chet tili fanidan davlat attestatsiya sinovlarining asosiy savollari**

1. How to write comparative graphs.
2. Writing formal and informal letters.
3. Writing diaries
4. Film brochures and guidebooks and their types.
5. How to write reports and news reports.
6. Newspaper articles. Short newspaper articles.
7. Dealing with more than one graph.
8. Internet blogs. How to create an internet blog.
9. Advertisements. How to write effective advertisements for grants and travelling.
10. Manuals and instructions and their types.
11. Encyclopedias and encyclopedic articles. How to read and write them.
12. Describing a process.
13. Short stories and types of them.
14. Newspaper and journal articles and the difference between them.
15. How to write international scientific articles and some steps of writing them.
16. Improving writing style.
17. Internet texts: websites and blogs and their specific features.
18. Professional articles and some steps how to write them.
19. How to write a critical review.
20. Letter types
21. How to write a Letter of Complaint
22. How to write a letter of Apology
23. How to write a letter of Congratulation
24. How to write a letter of Invitation
25. Bookmarks and their types
26. How to write a CV.
27. Applications. Job applications
28. Memo writing.
29. Essay types: Argumentative Essay
30. Essay types: Descriptive Essay
31. Essay types: For and against essay

- 32. Essay types: Problem solution essay
- 33. Essay types: Opinion essay
- 34. Essay types: Narrative essay
- 35. Essay types: Cause and Effect essay
- 36. Essay types: Expository essay
- 37. Essay types: Persuasive essay
- 38. Essay types: Discussion essay
- 39. Essay types: Disadvantages and Advantages
- 40. Essay types: Agree and Disagree essay
- 41. Essay types: Direct Question essay
- 42. Writing e-mails and messages in internet forums
- 43. How to write informal e-mail letters
- 44. How to write Business letters
- 45. How to write Autobiography
- 46. Reports and surveys: writing and analyzing them
- 47. Book reviews and how to write them
- 48. Film reviews and how to write them
- 49. Article reviews and how to write them
- 50. Research reports and steps of writing them
- 51. Reading strategies: skimming and scanning
- 52. Essay: paragraph writing (introduction, main body, conclusion)
- 53. How to write transactional letters
- 54. The language of newspapers: reading newspaper headlines
- 55. Extracts from novels and plays
- 56. Reading purposes: intensive reading and extensive reading
- 57. How to write a Reflective writing
- 58. Feedback writing and methods of giving feedback
- 59. Research summary and steps of writing it
- 60. Reference letters
- 61. Recommendation letters
- 62. How to write Sales letters
- 63. How to write Adjustment letters
- 64. How to write Acknowledgement letters
- 65. How to write Cover letters
- 66. Pre-writing, while-writing and post writing activities
- 67. Peer correction in writing
- 68. Self-evaluation in writing
- 69. Writing a research paper and general considerations
- 70. Analysis of a research paper
- 71. Dealing with ethical issues in writing: plagiarism, copywriting and asking permission.
- 72. Data: presenting and interpreting
- 73. Quotations and presenting them and referencing
- 74. Bibliography in research writing
- 75. Paraphrasing and summarizing
- 76. Writing questionnaires and their specific features
- 77. Proofreading and linguistic review: the difference between them
- 78. Redrafting and peer reviewing
- 79. Literature review
- 80. Creative writing activities
- 81. Paragraphs and types of paragraphs
- 82. Strategies for reading comprehension

83. How to write a short summary
84. Magazine article structure: writing a magazine article
85. Analyzing newspaper and magazine headlines
86. Brainstorming in essay writing
87. Questionnaires and their types
88. Academic research writing and referencing
89. How to write Audio letters
90. How to write Cease and Desist letters
91. How to write Chain letters
92. How to write Epistles
93. How to write letters of Intent
94. How to write letters to the editor
95. How to write letters of Request
96. How to write Crossed letters
97. How to write letters of Credence
98. How to write Hybrid letters
99. How to write Query letters
100. How to write Personal letters
101. Types of Business letters
102. How to write a Summary (to an article, TV programme, film and book)
103. Composition writing. Composition types
104. Strategies for note-taking and methods
105. Aspects of essay writing
106. Adapting children's books into plays
107. Glossary of writing terms and definitions
108. Academic writing style for reports
109. Integrating quotations into essays
110. Punctuation in essay writing
111. Essential components of reading
112. Reading newspaper columns, news columns and opinion columns
113. Filling in an application form
114. How to write application forms
115. Writing bar graphs
116. Writing pie charts
117. Writing Process diagrams
118. Filling in maps and tables
119. Writing line graphs
120. Differences in Formal, semi-formal and informal letters.

### **Asosiy va qo'shimha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. David Bohlke, Dorothy E.Zemach (2013) Skillful 1. Reading and writing. Macmillan.
2. Louis Rogers and Jennifer Wilkin, Dorothy E.Zemach (2012) Skillful 2. Reading and writing. Macmillan.
3. Scarry, S., &Scarry, J. The Writer's Workplace with Readings: Building College Writing Skills.
4. Thomson Learning. Sixth Edition. 2010.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Driscol, L. (2004), Reading Extra A resource book of multi-level skills activities. CUP.
2. Fry, E. B. (2000), Skimming and scanning Pre-intermediate. Jamestown Publishers.

3. Greenall, S. & D. Pye (2007), Reading 1, Cambridge Skills for Fluency. Cambridge: CUP.

4. Newspapers and magazines (e.g. English Teaching professional, Modern English Teacher, Uzbekistan Today, The Economist, The New Scientist, National Geographic etc)

### Internet saytlari

1. [www.developreading.com](http://www.developreading.com)
2. [www.teachingenglish.org.uk](http://www.teachingenglish.org.uk)
3. [www.online-literature.com](http://www.online-literature.com)
4. [www.literature.org](http://www.literature.org)
5. [www.pearsonlongman.com/ae/](http://www.pearsonlongman.com/ae/)

## “O’RGANILAYOTGAN TIL NAZARIY ASPEKTLARI (NAZARIY GRAMMATIKA, LEKSIKOLOGIY, STILISTIKA)” fanining mazmuni

Ushbu fan tilning fonetik jihatlari, grammatic strukturasi, tilning lug‘at tarkibi, til birliklarining semantik xususiyatlari, frazeologik birikmalari, so‘z yasash usullari, til lug‘at tarkibining etimologiyasi, lug‘atshunoslik, til birliklarining shakllanishi varivojlanishining umumiy qonuniyatları, til variantlari, shevalarning funksional jihatlari, tillar tarixi hamda til taraqqiyotining qonuniyatları kabi masalalarni qamrab oladi. Talabalarni nazariyfonetika, nazariy grammatika, leksikologiya, o’rganilayotgan til tarixi, stilistika kabi aspektlarning ilmiy asoslari va filologik fanlar o‘rtasidagi o‘rni to‘g‘risidagi bilimlar bilan qurollantiradi. “O’rganilayotgan til nazariy aspektlari” fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, bosqichma bosqich 2, 3, 4-kurslarda o‘qitilishi maqsadga muvofiq. Ushbu fan xorijiy tillar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, boshqa umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining nazariy va uslubiy asosi bo‘lib xizmat qildi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni til to‘g‘risidagi asosiy nazariy tushunchalar, chet tilini o‘rganishning uslub va yondashuvlari, tilning ilmiy bilimlar tizimida tutgan o‘rni va ahamiyati bilan tanishtirish, ularga til sathlarining nutqiy muloqot jarayonida kuzatiladigan asosiy qonuniyatlarini o‘rgatishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarda tilning ichki tuzilmasi, til qatlamlari va birliklarini ilmiy asosda tadqiq etish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida ilmiy-nazariy tushunchalarga ega bo‘lishlarini ta‘minlash vazifalarini bajaradi.

### Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) Leksikologiya

#### **1-mavzu. Leksikologiya faniga kirish**

Fanning mazmuni. Leksikologiya terminining paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Leksikologyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Fanning predmeti va obyekti, fanning metodi va ishlatalish yo‘llari. Leksikologiya fanining bo‘limlari va uning boshqa qismlari bilan bog‘liqligi.

#### **2-mavzu. Semasiologiya**

So‘z til lug‘at tarkibining asosiy birligi sifatida. So‘zning morfema, so‘z shakli, so‘z birikmasidan farqli xususiyatlari. Motivatsiya tushunchasi. Idiomatika va motivatsiya turlari: fonetik, morfologik, semantik. Ma’no va so‘z ma’nosining tuzilishi. O’rganilayotgan til, ona tili va boshka tillardagi so‘zlarning semantik tuzilishi. So‘z ma’nosining tuzilishini o‘rganishda paradigmatica va sintagmatikaning roli. Kontekst va uning turlari. Sodda, tub, yasama va qo‘shma so‘zlarning o‘ziga xos ma’nolari. So‘z ma’nosi va uning tuzilishi. Frazeologik birliklar ma’nolarining xususiyatlari, ma’no turlari tasnifi. So‘zning leksik-semantik variantlari. Ma’no tuzilishida sinxronik va diaxronik qarashlar va uning rivojlanish qonuniyatları. Lug‘at birligini semantik guruhlarga ajratish. Semantik maydon. Monosemiya, polisemiya, giperonimiya va

giponimiya muammolari. Sinonim, antonim va omonimlar masalalari, va ularning manbalari, tasnifi, tilni boyitishi va til rivojlanishidagi ahamiyati.

### **3-mavzu. So‘zning morfologik tuzilishi**

Bir va ko‘p morfemali so‘zlar. Morfemaning leksik birlik ekanligi. Morfemalar turlari va sinflari. So‘z negizi va uning turlari. Hozirgi zamon ingliz tilida so‘z tuzilishining turlari. So‘z tuzilishiga diaxronik va sinxronik qarash. Morfemalar yasash. Morfema va allomorfemalar. So‘z tuzilishini morfemik tahlil qilish asoslari va ularning so‘z yasash tahlilidan farqi.

### **4-mavzu. So‘z yasash**

So‘z yasash usullari. So‘zning asosiy tarkibiy qismlari. So‘z negizi. O‘zakning tuzilishi va semantikasi. Keng va kam tarqalgan usullar bilan so‘z yasash. Leksik nomlashda so‘z yasashning roli va o‘rni. So‘z yasash qatorlari zanjiri. Old qo‘srimchalar va ularning turlari. Har xil mezonlarga asoslanib old qo‘srimchalarini tasnif etish. O‘zak old qo‘srimchalarining semantikasi. Yarim old qo‘srimchalar yordamida so‘z yasash. Konversiya, uning kelib chiqishi va asoslari. So‘z yasalish yo‘lini aniqlashda konversiyadagi semantik aloqalarning asosiy mezon ekanligi. Konversiyaning keng tarqalganligini belgilovchi asosiy omillar. Konversiyani tarjima qilish muammolari. Qo‘shma so‘zlarning so‘z yasashning keng tarqalgan yo‘llaridan biri ekanligi. An’anaviy va zamonaviy tilshunoslikda qo‘shma so‘zlarni tasnif qilish asoslari. Qo‘shma so‘z yasashning har xil turlari, ularning keng tarqalganligi. Qo‘shma so‘zlarni ona tiliga tarjima qilish yo‘llari. Qisqartma so‘zlar (abbreviatsiya). Qisqartma so‘zlarning turlari. Klippings. Qisqartma so‘zlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar. So‘z yasashning boshqa usullari: ma’no kengayishi, tovush va urg‘u ko‘chishi, tovushga taqlid qilish va reduplikatsiya, grammatik shakllarning leksikalizatsiyalashuvi va so‘z yasashda har xil turlarning birikuvi.

### **5-mavzu. Frazeologiya**

Frazeologiyaning maqsad va vazifalari. Turg‘un va erkin birikmalarni farqlash muammosi, ularni farqlovchi belgilar. Leksik birikish. Turg‘un birikmalar va ularning har xil mezonlarga asosan tasnifi. Frazeologik birliklarning yuzaga kelish yo‘llari. So‘z va so‘z birikmasining o‘xshashligi va farqi. Frazeologik birliklar va ularni tarjima qilish muammolari.

### **6-mavzu. Etimologiya**

Til lug‘at tarkibining etimologik jihatdan tasnifi. O‘rganilayotgan tilda keyin paydo bo‘lgan va boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar. Xorijiy tillardan kirib kelgan so‘zlarning turlari, o‘zlashtirilishi, assimilyatsiyasi, lug‘at tarkibi va so‘z yasash tizimiga ta’siri. Baynalminal so‘zlar. Etimologik lug‘atlar.

### **7-mavzu. Leksikografiya**

Leksikografiyaning fan sifatida rivojlanishi. Lug‘atlarning asosiy turlari: ensiklopedik, lingvistik, izohli va tarjima lug‘atlari. Lug‘at turlari muammosi va ularni yaratish usulublari. Lug‘atlar uchun so‘z tanlash, lug‘at maqolalarining tuzilishi va boshqalar. Ingliz, nemis, fransuz va ispan tillaridagi lug‘atlarning asosiy turlari: izohli va tarjima lug‘atlari, sinonimlar lug‘ati, frazeologik birliklar lug‘ati, etimologik, ideografik, maxsus lug‘atlar, neologizmlar lug‘atlari va boshqalar.

O‘quv lug‘atlarining tuzilishi (so‘zlarning birikish yo‘llari lug‘ati, ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar lug‘ati). Turli lug‘atlarda so‘z ma’nolarini ochib berish yo‘llari. Tarjima jarayonida lug‘at bilan ishslash, So‘zning izohli tahlilini o‘rganish, boshqa lug‘atlardagi izohlari bilan qiyoslash. Til lug‘at tarkibining o‘zgarishi sotsiolingvistik hodisa ekanligi. Lug‘at tarkibining sifat va son jihatdan o‘zgarishi. Lug‘at tarkibining leksik va stilistik tasnifi. So‘zlarni ishlatalishi jihatidan tasnif etish. Umumiste’mol so‘zleri va maxsus leksika. Arxaizmlar, istorizmlar, neologizmlar, ularning tarixiy bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri. Asosiy va yordamchi so‘z turkumlarining son jihatidan o‘zaro farqi. Nomlashning faolligi va lug‘at tarkibining boyish yo‘llari. So‘zning ma’no taraqqiyoti rivoji, boshqa tillardan kirgan so‘zlar qatlami.

## Nazariy grammatika

### 1-mavzu. Nazariy grammatika faniga kirish

Morfologiya va sintaksis. Grammatikaning ta’rifi. Grammatik shakl va grammatik ma’no. Til va nutq. Aktualizatsiya. Grammatik qurilishning birlklari. Tilni grammatik jihatdan tasvirlashnnng turlari. Grammatikadagi metod va nazariy yo‘nalishlar. Grammatikadagi asimmetriya hodisasi. Funksional yondashuv. Grammatik kategoriylar. Grammatik kategoriyaning mazmun plani. Grammatik kategoriyaning ifoda plani.

### 2-mavzu. Morfologiya

O‘rganilayotgan tilning grammatik vositalari: so‘z tartibi, yordamchi so‘zlar, grammatik qo‘shimchalar, urg‘u va intonatsiya, o‘zak tarkibidagi tovushlar o‘zgarishi. Morfema, morf, allomorf va ularning strukturaviy turlari. Morfemannng turlari. Analitik shakl tushunchasi. Til grammatik tizimining xususiyatlari. So‘z turkumi. Asosiy so‘z turkumlari. Mustaqil va yordamchi so‘zlar. O‘rganilayotgan tilda so‘z turkumlarining umumiy xususiyatlari. So‘z turkumlarining shakl va ma’nolari. Transpozitsiya xodisasi.

### 3-mavzu. Ot so‘z turkumi

Xorijiy tilda otning distributiv belgilari. Ularning boshqa so‘z turkumlari yordamida qo‘shilishi. Otning so‘z turkumi sifatida morfologik va semantik xarakteristikasi. Otlarning asosiy semantik guruhlari. Son kategoriysi. Otlarda ko‘plik kategoriyasining ishlatalishi. Jamlovchi va partitiv otlar. Determinativlar. Determinativlarning so‘z turkumi sifatidagi umumiy xossalari. Determinativlarning semantikasi. Kelishik kategoriysi, kelishik kategoriysi haqida har xil nazariyalar. Egalik kelishigining shakli va uning qo‘llanish xususiyatlari. Aniqliknoaniqlik kategoriyasini ifodalovchi asosiy vosita. Artiklning umumnazariy muammolari, artiklning funksiyalari, Rod kategoriysi

### 4-mavzu. Sifat va ravish

Sifat so‘z turkumi sifatida. Uning asosiy xususiyatlari. Sifatning semantik tasnifi. Qiyoslash kategoriyasiga oid olmoshlarning semantikasi, sintaktik xossalari, grammatik kategoriylari va shakllari. Ravishning semantik-grammatik guruhlari. Adverbializatsiya.

### 5-mavzu. Fe’l

Fe’l - so‘z turkumi sifatida. Uning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, umumiy va farq qiluvchi tomonlari. Fe’lning morfologik vazifasiga ko‘ra tasnifi: mustaqil fe’llar, o‘timli va o‘timsiz fe’llar, ma’no jihatidan tugallangan va tugallanmagan fe’llar. Fe’lning

grammatik kategoriylari: aspekt (tarz) kategoriysi, nisbat kategoriysi. Majxul nisbatning keng tarqalish sababları. Majxul konstruksiyalarning qo‘llanish xususiyatlari. Fel mayllari. Ular to‘g‘risidagi zamonaviy konsepsiylar. Fe’lning semantik - grammatik guruhlari. Fe’l tizimidagi grammatik ma’nolarni ifoda qilish vositalari. Fe’lning shaxssiz

formalari. Infinitiv, gerundiy va sifatdosh.

### 6-mavzu. Son, Olmosh

Son-so‘z turkumi sifatida. Conning turlari. Sonning gapdagagi vazifalari. Olmosh so‘z turkumi sifatida. Olmoshning kelishik kategoriysi. Olmoshning semantik va strukturaviy turlari.

### 7-mavzu. Yordamchi so‘z turkumlari

Artikl, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama va modal so‘zlar.

### 8-mavzu. Sintaksis

Gap tushunchasini aniqlash xaqidagi asosiy fikrlar. Gapni aniqlashda klassik yondashuv. Gap tasnifi. Gapning maqsadga ko‘ra turlari: bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplar. Gapda ellipsis tushunchasi. Bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplarning farqi. Gap – kommunikatsiya birligi sifatida, gapning vazifasi, tuzilishi. Asosiy va ikkinchi darajali bo‘laklar. Ega. Eganing ifoda vositalari. Kesim - gapning asosiy belgisi sifatida. Modallik tushunchasi. Kesimning asosiy xususiyati. Modallik kategoriyasining ifoda usullari. So‘z birikmasi. Birikma xosil bo‘lish omillari. So‘z birikmasining strukturaviy - funksional tipologiyasi. So‘z birikmasining komponentlari o‘rtasidagi semantik munosabatlar. Gap bo‘laklarining strukturaviy tiplari. Gap bo‘laklari va so‘z turkumlari o‘rtasidagi munosabat. Predikativlik munosabatlarning o‘ziga xos shakllariga ega bo‘lgan gaplar. Qisqartirilgan sintaktik strukturaga ega bo‘lgan gaplar.

To‘liqsiz gaplar. Atov gaplar. Polipredikativlik va murakkablashgan gaplar. Qo‘shma gaplar. Bog‘langan qo‘shma gaplar. Ergashgan qo‘shma gaplar.

#### **9-mavzu. Til grammatik strukturasini tahlil qilishning zamonaviy metodlari**

O‘rganilayotgan til grammatik tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari. Grammatik ma’noni ifoda etuvchi vositalar. Grammatik kategoriyalar. Grammatik shakl va grammatik ma’no tushunchalari. So‘zning sintetik va analitik shakllari. So‘z turkumlari va gap bo‘laklari orasidagi munosabat. So‘zning morfologik strukturasi. Morfema va uning turlari. Kombinatorika tushunchasi. Morfologiya va Sintaksis. Sintaktik strukturalar. Sintaksisda modellash tushunchasi. Gapni tahlil qilish metodlari. Grammatikaning turlari: an‘anaviy grammatika, mantiqiy grammatika, strukturaviy grammatika, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish grammatikasi, transformatsion grammatika, generativ grammatika, kelishik grammatikasi, kognitiv grammatika. O‘rganilayotgan tilda til birliklari orasida kuzatiladigan sintaktik aloqlar turlari; Koordinatsiya, Subordinatsiya, Predikatsiya, Birlamchi va ikkilamchi predikatsiya tushunchalari. Murakkab tarkibli strukturalar. Polipredikativ qurilmalarning strukturaviy-funksional tahlili.

### **Nazariy fonetika**

#### **1-mavzu. O‘rganilayotgan tilda segment fonemalar**

Segment fonemalarning artikulyatsion tomoni: tovushlar hosil bo‘lishining to‘rt mexanizmi (kuch, tebranish, rezonatorlik va to‘siqni yengish), ularga aloqador bo‘lgan nutq organlari. Nutq organlarining tuzilishi, faoliyati va vazifalari. Unli tovushlarni tasnif qilishda o‘zbek, rus, Yevropa va Amerika olimlarining fikrlari. Unlilarning talaffuz turg‘unligiga ko‘ra (monoftong, diftong, diftongoid), tilning gorizontal va vertikal harakatiga ko‘ra, lablarning holatiga ko‘ra, tarixiy cho‘ziqligiga ko‘ra, nutq organlarining taranglashuviga ko‘ra tasnifi. O‘rganilayotgan til unlilarini rus va o‘zbek tili unlilari bilan qiyoslash. Undosh tovushlarni tasnif qilishda rus, o‘zbek, ingliz, nemis, fransuz, ispan va amerika olimlarining fikrlari. Undosh tovushlarni tovush psychalarining ishtirokiga ko‘ra va talaffuz kuchiga ko‘ra; faol va passiv nutq organlariga ko‘ra; tovush hosil bo‘lishida to‘siqning turiga ko‘ra va shovqinning xarakteriga ko‘ra; kichik tilning faoliyatiga ko‘ra tasnifi. O‘rganilayotgan tilda affrikat tovushlarining soni haqida fikrlar. O‘rganilayotgan tildagi undoshlarni rus va o‘zbek tili undoshlari bilan qiyoslash. Unli va undosh tovushlarning hosil bo‘lishida asosiy farqlar. Turli tillarda mavjud bir xil tovushlarning sifat jihatidan farqlanishi. Artikulyatsion baza tushunchasi. Segment fonemalar hosil bo‘lishining akustik tomoni: nutq tovushlarining, fizik xususiyatlari (tovush tebranishi, cho‘ziqligi, ovoz toni), ularning artikulyatsion shakli. Segment fonemalarning fonologik tomoni: fonemaga ta’rif berish muammozi.

#### **2-mavzu. Fonema nazariyasi**

Fonemaning uch xususiyati yaxlitligidan iboratligi: uning material (talaffuz) tomoni, abstraktligi, umumiyligi, funksional, ya’ni ma’no farqlay olish xususiyati. Fonema va uning variantlari (allofonlar). Segment fonemalarning konstitutiv va distinkтив vazifalari. Urg‘usiz unlilar va ularning tasnifi. Transkripsiya va uning turlari. Nutq tovushlarining o‘zgarishi va ularning turlari. Bu haqda Moskva va Sankt Peterburg olimlarining qarashlari. Assimilyatsiya, akkomodatsiya va eliziya kabi tovush o‘zgarishi xususiyatlari.

#### **3-mavzu. Tillarda bo‘g‘in qurilishi**

Bo‘g‘in fonetikaning talaffuz birligi sifatida. Bo‘g‘inning nutqdagi vazifalari. Bo‘g‘in hosil qiluvchi tovushlar. Bo‘g‘inning tarkibiy qismlari va turlari. Bo‘g‘in boshida va oxirida unli va undoshlarning birika olishi. O‘rganilayotgan xorijiy tilda bo‘g‘in ajratish qoidalari. Bo‘g‘in haqida mavjud nazariyalar. Bo‘g‘inning vazifalari.

#### **4-mavzu. So‘z urg‘usi**

So‘z urg‘usi tushunchasi, ularning turlari (dinamik, musiqiy, sifat va miqdor urg‘ulari). So‘z urg‘usining xususiyatlari. Urg‘uning o‘rni vadarajasi. Urg‘u o‘rnini belgilovchi omillar (retsessiv, ritmik, grammatik va semantik), ularning o‘zaro munosabati. So‘z urg‘usining vazifalari.

## **5-mavzu. Intonatsiya**

Intonatsiya ta’rifi. Tor va keng ta’rif. Intonatsiyaning tashkiliy qismlari va ularning vazifalari. Intonatsiya va prosodiya. Intonatsiyaning melodik komponenti, uning ta’rifi va vazifalari. Tekst hosil qilishda melodik komponentning roli. Melodik komponentning turlari. Intonatsiyaning gap urg‘usi komponenti, uning ta’rifi va vazifalari. Gap urg‘usining turlari. Gap urg‘usi va so‘z urg‘usi munosabati. Gap urg‘usining matn tuzishda ritmik va intonatsion guruhlar hosil qilishdagi roli. Gap urg‘usining melodik komponent bilan o‘zaro munosabati va gapning kommunikativ markazini hosil qilish qobiliyati. Gap urg‘usining vazifalari. Intonatsiyani yozma ifodalash turlari (L.Armstrong va I.Uord sistemasi va R.Kingdon metodi). Intonatsiyaning raqamli va pog‘onali ifodalaniishi. Intonatsiyada nutq tezligi (temp), ovoz bo‘yog‘i (tembr), pauza (to‘xtam) va ritm (urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar ketma-ketligi) kabi birlıklarning vazifalari. Intonatsiyaning fonologik vazifasi. Intonema tushunchasi. Intonatsiyaning matn hosil qilish vazifasi.

## **6-mavzu. Nutqning fonostilistik xususiyatlari**

Fonostilistikaning asosiy o‘rganish obyektlari. Talaffuz normasi va uning stilistik farqlanishi masalasi. Fonetik uslublarni ifodalashda ekstralivingistik va paralingvistik vositalar. Tovush va intonatsiya stilistikasi. Intonatsion uslub turlari. Fonetik sinonimiya masalasi. Tovushlar simvolizmi tushunchasi.

## **Stilistika**

### **1-mavzu. “Stilistika” fanning mazmuni, predmeti va metodi**

Stilistika kursining dolzarbligi va vazifalari. Stilistika zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari nigohida. Stilistikaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi: stilistika va kommunikativ lingvistik, stilistika va pragmalingvistica, stilistika va lingvokulturologiya. Stilistika turlari: qiyosiy stilistika, amaliy stilistika, furksional stilistika, individual uslub stilistikasi. Stilistik tahlil metodlari.

### **2-mavzu. Uslubiy leksika tarkibi**

Uslubiy leksika tarkibi: Adabiy so‘zlar, neytral so‘zlar, va og‘zaki so‘zlar. Adabiy so‘zlarning stilistik jihatlari va turlari: atama, arxaizm, neologizm, poetik so‘zlar tushunchalari va ularning matndagi stilistik vazifalari. Og‘zaki so‘zlarning stilistik xususiyatlari va turlari: sleng, vulgarizm, evfemizm, sheva va jargon tushunchalari va ularning matndagi stilistik vazifalari. Tilda meyor tushunchasi. Shaxsiy yondashuv va meyor. Umumiy, adabiy, og‘zaki va adabiy uslublar xususiyatlari. Registr tushunchasi.

### **3-mavzu. Funksional uslub tushunchasi**

Funksional uslub va uning turlari. Badiiy uslub xususiyatlari:

she’riy, drama va nasr uslublarining asosiy til xususiyatlari. Ilmiy uslub xususiyatlari va vazifalari. Publitsistik uslub xususiyatlari va vazifalari. Axborot vositalari uslub xususiyatlari va vazifalari. Axborot vositalari matnida janr turlari va xususiyatlari. Rasmiy uslub vazifalari, rasmiy uslub turlari va ularning lisoniy xususiyatlari.

### **4-mavzu. Leksik stilistik vositalar**

Ifoda va stilistik vosita tushunchasi. Stilistik vazifa tushunchasi va turlari. Leksik ma’no turlari. Stilistik vositalarning til sathlararo turlanishi: metafora, metonimiya, ironiya, epitet, mubolag‘a, oksimoron, antonomasiya, zevgma, so‘z o‘yini tushunchasi, lisoniy ahamiyati va vazifalari.

### **5-mavzu. Leksik-sintaktik stilistik vositalar**

O‘xshatish, perefraza, litota, gradatsiya, antiteza, allyuziya, o‘zlashtirma gap tushunchalari, ularning lisoniy ahamiyati va vazifalari.

### **6-mavzu. Sintaktik stilistik vositalar**

Sintaktik stilistik vositalarning lisoniy ahamiyati va vazifalari. Gap qurilishidagi o‘zgarishlarga asoslangan stilistik vositalar: bir bosh bo‘lakli gap, inversiya, parallel konstruksiya, xiazm, takror, sanash, polisindeton, asindeton va ritorik so‘roq gap. Og‘zaki

nutqda gap tarkibi o‘zgarishlariga asoslangan stilistik vositalar: ellipsis, tugallanmagan gap, ajratilgan kostruksiya.

### **7-mavzu. Fonetik stilistik vositalar**

